

**MIXAIL IVANOVICH GLINKANING HAYOTI VA IJODI.
“IVAN SUSANIN” OPERASINING TAHLILI.**

Qodirjonova Savriniso Muhammadtursun qizi
ADPI Musiqa ta’lim yo’nalishi 2-bosqich talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada Mixail Ivanovich Glinkaning hayoti va ijodi uning rus musiqa madaniyatiga qo‘shgan xissasi. “Ivan Susanin” operasining tahlili haqida so‘z yuritilgan. Ivan Susanin” operasining yaratilishi rus opera san’atining rivojlanishida muhim voqealardan biri bo‘ldi. Mazkur opera butun dunyo musiqa tarixidagi birinchi qahromonona xalq musiqali drammasidir.

Kalit so‘zlar: opera, klassik, garmoniya, polifoniya, shakllantirish, romans, uvertyura, orkestr, introduksiya.

Аннотация: В этой статье Жизнь и творчество Михаила Ивановича Глинки его вклад в русскую музыкальную культуру. Упоминается анализ оперы "Иван Сусанин". Создание оперы "Иван Сусанин" стало одним из важнейших событий в развитии русского оперного искусства. Эта опера-первая в истории мировой музыки героическая народная музыкальная драма.

Ключевые слова: опера, классика, гармония, полифония, формирование, романс, увертюра, оркестр, введение.

Abstract: In this article, the life and work of Mikhail Ivanovich Glinka and his contribution to Russian musical culture. The analysis of the opera "Ivan Susanin" is mentioned. The creation of the opera Ivan Susanin became one of the most important events in the development of Russian opera art. This opera is the first heroic folk musical drama in the history of world music.

Keywords: opera, classical, harmony, polyphony, formation, romance, overture, orchestra, introduction.

Mixail Ivanovich Glinkani rus musiqasini Pushkini deb atashadi. Pushkin o‘z ijodi bilan rus adabiyoti bilan rus adabiyotini klassik davrini ochgan bo‘lsa, M.I.Glinka rus klassik musiqasining asoschisi bo‘ldi. Glinka Pushkin kabi o‘z davrigacha yashab ijod etgan kompozitorlarning yutuqlarini jamlab, rus musiqasini yanada yuqori pog‘onaga olib chiqdi. Shu davrdan boshlab rus musiqasi butun dunyo musiqa madaniyatiga yuqori o‘rinlardan birini egalladi. A.S.Pushkin she’rlari bizda qanday taassurot qoldirsa M.I.Glinka musiqasi ham huddi shunday taassurot qoldiradi. Bu musiqa o‘zining go‘zalligi, she’riyat nafisligi, fikrlarning boyligi, buyukligi, donaligi bilan ajralib turadi. Glinka o‘z musiqasida insonni ichki dunyosini, vataniga bo‘lgan mexr muxabbatini, dostlikda sodiqligini, muxabbatga sodiqligini, qahromonligini ko‘rsatib beradi.

Glinka musiqasining bu qirralarini tarixiy voqealari asosida paydo bo‘ldi. Glinka bolaligida 1812-yil “Vatan urushi” va dekabristlar harakatini ko‘rgan. Bu janrlardan olingan taassurotlar kompozitor ijodida o‘z aksini topdi. Shuning uchun ham Glinka ijodining asosiy

qahramonlari xalq, musiqasining asosi esa xalq qo‘shiqlari bo‘ldi. Glinkagacha rus musiqasida oddiy insonlar dehqonlar yoki shaxarliklar kundalik hayotda ko‘rsatilar edi. Ular hech qachon tarixiy voqealarning asosiy qahramonlari qilib ko‘rsatilgan. Lekin 1812-yildagi Vatan urushi eng qiyin og‘ir damlarda vatan taqdirini xalq ommasi hal etishni ko‘rsatib berdi va xalqni asosiy qahramon qilib opera sahnasiga olib chiqdi. “Ivan

Susanin” Glinka operasida oddiy dehqon emas balki o‘z vatanini dushmanlardan qutqaruvchi buyuk qahramon deb ko‘rsatildi. Ruslan kabi u o‘zida yuqori insoniy fazilatlarini: vatanparvarlik va mardlikni, aql idrok va oliy janoblikni, ko‘ngil poklik va mardonavorlikni mujassamlashtirgan. Birinchi marta rus musiqasida oddiy inson buyuk va jiddiy operaning asosiy qahramoni bo‘ldi. Rus kompozitorlari orasida Glinka birinchi bo‘lib shakl, garmoniya, polifoniya, orkestrlashtirish bo‘yicha yuqori professional mahoratga ega bo‘ldi. O‘z davrining musiqa san‘atidagi murakkab va rivojlangan janrlarni egalladi va folklorni katta kompozitorlik maxorati bilan yaqinlashdi. Bu esa o‘z navbatida Glinkaga xalq qo‘shiqlari yanada g‘ozallashtirishga, ularni yirik musiqiy shakllarga kiritishga yordam beradi. Rus xalq qo‘shiqlariga hos bo‘lgan hislatlarga tayangan holda Glinka butun dunyo musiqa madaniyatida toplangan ifodali vositalarni birlashtirib, keying davr rus musiqasining asosi bo‘lgan o‘ziga xos milliy musiqiy usulni yaratdi.

Boshqalarni manfaatini o‘z manfaatidan yuqori qo‘yuvchi qahramonlarni ideal obrazlarini gavdalanitirishga intilish, monumental shakllarga intilish Glinkani klassitsizm bilan birlashtirdi. Glinkaning qahramonona va fojeali obrazlari Gluk va Betxoven eslatsa, klassitsizm namoyondalaridan Motsart bilan esa musiqiy tilining aniq va ravonligi tiniq va yorug‘ligi bilan yaqinlashadi. Xalq maishiy hayotini takrorlanmas milliy buyoqlarda tasvirlash, tabiatini, uzoq mamlakatlarning tarixiy voqealarini, ertaklarini, xalq fantastik obrazlarini ko‘rsatish, yangi garmonik vositalarning rang barangligi orkestrnin yangrash, qaramaqarshilikning o‘tkirliigi Glinkani romantizm bilan birlashtiradi. Shunday qilib Glinka ijodida klassitsizm bilan romantizm ma‘lum bir hususiyatlari birlashadi. (Bunday birlashuvni Shopen va Mendelson ijodida ham ko‘rish mumkin). Lekin kompozitor ijodi bu xususiyatlar bilan aniqlanmaydi. Glinka ijodining asosiy maqsadi hayotidagi bo‘lib o‘tadigan real voqealarni, insonning ichki his tuyg‘ularini ochiq oydin tasvirlab berishdi. Glinka ijodi rus musiqasida realism davrini ochib berdi. Biz Glinkani nafaqat buyuk kompozitor sifatida balki inson ruhini go‘zalligini butun dunyoga tarqatuvchi buyuk psixolog sifatida inson ruxini go‘zalligini butun dunyoga tarqatuvchi buyuk psixolog sifatida ham bilamiz.

Mixail Ivanovich Glinka 20-may 1804-yil Smolensk guberniyasining Novopassk qishlog‘ida dunyoga keldi. Bu yerda uning bolalik yillari o‘tdi. Glinka bolaligida juda ham tabiatni, san‘atni bu xalqni sevar edi. Musiqada bo‘lgan qiziqish erta uyg‘ondi. Mixail bolaligidan tog‘asining dehqonlardan tashkil topgan orkestri ijrosida ko‘p asarlar tingladi. Bu taassurotlar ostida mustaqil ravishda skripka va fleytada chalishni o‘rgana boshlaydi. 11 yoshidan esa bunga fortepiano ham qo‘shildi. Shu davrga u chet elga qiziqdi, rasm chizishni ham o‘rganib barcha yo‘nalishlarda muvaffaqiyatlarga erishar o‘z iqtidorini namoyon qilar edi. 1817 yil Glinka Peterburkga ko‘chib keldi va “Благородный пенсион”da o‘z ma‘lumotini yakunlaydi.

Pansionni 1822-yil tamomlab, ma’lum vaqt chinovnik vazifasida xizmat qiladi va iste’foga chiqadi. Pansionda o‘qib yurgan kezlari fortepiano va skripkada shug‘ullanib turdi. 1823-yil Glinka davolanish uchun Kavkazga boradi. Bu yerda u Kavkaz xalqining ashula va raqslari bilan tanishadi. Bu taassurotlar esa keyinchalik uning ijodida o‘z aksini topdi (Jumladan “Ruslan va Ludmila” operasida). Pansionni tamomlagandan so‘ng. Glinka ko‘p vaqtini musiqa mashg‘ulotlariga ajrata boshladi. Do‘stlari orasida bo‘lib, 4 qo‘l uchun yozilgan asarlarni birgalikda ijro etar, murakkab bo‘lmagan romanslar yaratib o‘zi xirgoyi qilar edi. Vaqt o‘tgan sari u musiqaga jiddiy yondosha boshladi: taniqli klassiklar ijodini o‘rgana boshladi, simfonik xor va kamer instrumental asarlar yozishga harakat qildi. Glinka ijodining rivvojlanishi va shakllanishi adabiyotning yirik arboblari Pushkin, Griboyedov, Jukovskiylar bilan bo‘lgan munosabatlar ham katta ahamiyatga ega bo‘ldi. Ular yordamida Glinka san’atiga qanchalik jiddiy yondashish kerakligini angladi.

20-yillar Glinka bir necha asarlarining avtori edi. Ular qatorida taniqli “Не ищмай” romansi ham bordir. 4-yil Glinka Italiya va Germaniyada yashadi. Katta qiziqish bilan xorij mamlakatlarining hayoti, madaniyatibilan qiziqdi. Berlioz, Mendelson, Belinni, Donnisetlar bilan tanishdi va yaqin do‘stona aloqada bo‘ldi. 1834-yil Glinka Rossiyaga qaytib keladi va katta qiziqish bilan Jukovskiy maslahat bergan “Иван Сусанин” operasi ustida ish boshlaydi. Operani yakunlash arafasida bir vaqtning o‘zida Glinka uni honandalar bilan ham o‘rganishga kirishdi. Ular orasida Susanin va Vanya rollarini ijro etgan O.A.Petrov va A.Y.Vorobyevlar alohida e’tiborga loyiqdir.

“Ivan Susanin” operasining birinchi premyerasi 1836-yil 27-noyabrda Peterburgning katta teatri sahnasida bo‘lib o‘tdi. Bu kun tarixga rus klassik musiqasining tug‘ilgan kuni deb kiritildi. “Ivan Susanin” operasining premyerasidan so‘ng Glinka “Ruslan va Ludmila” operasini rivojlantirdi. Kompozitor operaning librettosini Pushkin yozib beradi deb orzu qilgan edi. Lekin shoirning bevaqt o‘limi barcha orzularni barbod qildi. Glinkaning o‘zi librettoni yaratishga kirishdi.

1844-yil Glinka Peterburgdan Parijga jo‘nab ketdi. Bu yerda 1-yil yashadi Fransuz madaniyati bilan tanishdi Berlioz bilan uchrashib turdi. 1845-yilning may oyida Glinka Ispaniyaga jo‘nab ketadi. Bu yerda u 2 yil yashadi, ko‘plab shaharlar va viloyatlarni tomosha qildi. Xalq musiqa namunalarini Glinka oddiy insonlar orasidan izlar edi. Har bir shaharda u xonandalar, raqqosalar bilan uchrashar ulardan ispan qo‘shiq va raqslarini yozib olar edi. Ispaniyaga bo‘lgan sayoxat ajoyib ijodiy natijalar berdi. 1846-yil Glinka Madridda “Araganskaya xota” uvertyurasini yaratdi. Ispaniyadan qaytgach 2chi ispan uvertyurasi “Ночь в Мадриде”ni yozdi. Hayotining so‘nggi 9 yillini Glinka Peterburkda Varshavada, Parijda, Berlinda o‘tkazadi. U “Kamarinskaya” nomli simfonik fantaziyalari yaratdi. Yirik asarlaridan “Taras Bulba” simfoniyasi va “Dvumujnitsa” operasi nixoyasiga yetmadi. Shunday og‘ir damlarda Glinkani rus madaniyatining ilg‘or arboblari qo‘llab-quvvatladi. Bular orasida Dargomijskiy, Petrov, V.V.Stasov, A.N.Serov, yosh Balakirev va Glinkaning opasi L.I.Shestakovlar bor edi. 1856-yil Glinka Berlinga ketadi. Bu yerda Den bilan uchrashib, katta qiziqish bilan polifonik shakllar ustida ishlay boshladi. Lekin 1857-yili

yanvarda shamollab qolib 3 fevralda vafot etadi. Uning jasadi Peterburkdagi Aleksandro Nevskiylarni qabristoniga ko‘chiriladi.

Ivan Susanin operasi butun dunyo musiqa tarixidagi birinchi qahramonona xalq musiqali drammasidir. Haqiqiy tarixiy voqea operaning asosi qilib olingan. Ushbu voqea 1613-yili kastroma oldidagi Domnino qishlog‘ida tug‘ilgan Ivan Osipovich Susanin haqidadir. U vatanini dushmanlardan ozod qilib o‘zi qahramonlarcha halok bo‘ladi. Uning jasorati mardligiga Rossiya odamlari yuqori baho beradilar. Rus adabiyoti va san‘atida Susanin mavzuyi Glinkagacha ham keng tarqalgan edi. Shu syujetga kompozitor kavos ham opera yozgan edi. Opera 4 parda va epilogdan iborat. Opera uvertyura bilan ochiladi. Butun orkestr rus xalqining matonati kuchi vatanparvarligini namoyon etadi.

I-parda Introduksiya.

I parda katta xor saxnasi Introduksiya bilan ochiladi. Introduksiyada bir necha marta II ta xor erkaklar va ayollar xori almashinib turadi.

II-parda. Bu pardada Polsha qiroli Sigizmunda saroyida bo‘lgan voqea tasvirlangan. II parda I parda bilan contrast xolatda. II pardada 4 ta raqs ijro etiladi bular: polonez, krakovyak, vals va mazurka. Valsdan tashqari hamma raqslar Polsha xalq raqslaridir.

III-parda. Uni 2 qismga ajratish mumkin. I-qism dushmanlar kelguniga qadar. II-qism dushmanlar kelish paytidan boshlab. III-parda Vanya ashulasi bilan boshlanadi.

Adagio non tanto.

АНТОНИДА. Не о томъ скорблю по-друженьки, я го-рю-ю не о

PIANO. Quart. Cor. m. d.

томъ, что мнѣ жал-ко во-ли дѣ-ви-чьей, что о-ста-влю от-чѣй

Cello e Fag.

IV parda. Uchta ko‘rinishdan iborat. Ko‘rinishi rechitativ va katta bo‘lmagan ariyadan iborat bo‘lgan monolog bilan boshlanadi. Qisqagina motivlardan tuzilgan rechitativda Vanyaning hayajoni nutqi eshitiladi. Yumshoq, mayin ariya III-pardadagi vanya qo‘shig‘ini eslatadi.

Epilog. Opera Moskvaning qizil maydonidagi tantanavor xalq bayrami g‘alabasi bilan yakunlanadi. Epilog 3 ta bo‘limdan iborat.

- 1) Славься хоридан
- 2) Сахна ва трио
- 3) Финал “Славься хорининг янги ва якуний байони”.

Xulosa qilib aytganda “Ivan Susanin” operasining yaratilishi rus opera san’atining rivojlanishida muhim voqealardan biri bo’ldi. Glinka operaga yangi xalq qahramonlarini kiritdi. Glinka rus kompozitorlari orasida birinchilardan bo’lib yirik opera shaklining barcha musiqiy vositalaridan to’la foydalana oldi va shu bilan birga bu shaklni yangiladi va rivojlantirdi. Boshqalarni manfaatini o’z manfaatidan yuqori qo’yuvchi qahramonlarni ideal obrazlarini gavdalantirishga intilish, monumental shakllarga intilish Glinkani klassitsizm bilan birlashtirdi. Bu musiqa o’zining go’zalligi, she’riyat nafisligi, fikrlarning boyligi, buyukligi, donaligi bilan ajralib turadi. U birinchi qahromonona xalq musiqali drammasidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. R.Tursunova, G.Tursunova – Jahon musiqasi tarixi Toshkent-2017 153b.
2. “Ivan Susanin” operasidan Antonida ariyasi.
3. Musiqa tarixi – NAMDU – 2023y